




FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**FARG'ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2023-YIL YANVAR-IYUL
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



**Tel.: 73-241-96-28
www.farstat.uz**



Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 157,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,8 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish



Farg‘ona viloyatida 2023-yil yanvar-iyul oylariga aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4294,1 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **15 990,9** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **93,2 %** ni, tashkil etdi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **85,3 mld. so‘mni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ini tashkil etdi.



yanvar-iyul

2022-y. 45,7 mld. so‘m

2023-y. 85,3 mld. so‘m

FHI, %da

2022-y. 18,5%

2023-y. 182,1%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **15 990,9 mld. so‘mni** yoki jami sanoat mahsulotlarining **93,2 %** ini tashkil etdi.

2022-y. yanvar-iyul


15 148,3 mld. so‘m

2023-y. 15 990,9 mld. so‘m

FHI, %da

2022-y. 105,4%

2023-y. 103,1%



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

	Dizel yoqilg'isi	Avtomobil benzini	Klinker sement
2023	155,7	2023	185,3
2022	82,9	2022	86,4
2021	104,4	2021	104,6
O'simlik yog'i (tozalangan)		Portlandsement	Yumshoq bug'doy va spelta uni
2023	48,1	2023	85,4
2022	84,6	2022	99,4
2021	62,9	2021	76,4
Neft bitumi		Aroq ming litr (100% spirit)	Uzum vinosi
2023	v 2,3 r	2023	109,4
2022	55,8	2022	55,3
2021	v 3,0 r	2021	104,5
Karbamid		Paxta chigit	Paxta linti
2023	109,7	2023	122,4
2022	95,7	2022	81,5
2021	75,8	2021	170,7

2023-yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 210,0 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 85,3% ga ko'paygan), 267,8 ming tonna dizel yoqilg'isi (55,7 % ko'paygan), 49,8 ming tonna kalava ip mahsulotlari (10,3%ga kamaygan) hamda 19517,1 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (40,2%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyul	2023-yil yanvar- iyul	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	113,3	210,0	96,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	133,9	138,0	4,1
Paxta chigit, ming t.	27,8	37,3	9,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	10,3	5,0	-5,3

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 8,1 % (2022-yilning yanvar- iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 119,7%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 37,6% (2022-yilning yanvar- iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,2 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,8% (2022-yilning yanvar- iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,0%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,2 % (2022-yilning yanvar- iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 106,6 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2022-yilning yanvar-iyul oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,6 % (15,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 22,9% (20,5%) va quyi texnologiyalisi – 53,4% (56,9%)ni tashkil etdi.





Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati 112,1 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7% ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 192,8 % ni tashkil etgan.


2022-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati 57,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,4% ni etdi o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 75,0 % ga kamaydi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 16,1 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 2 101,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 112,8 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,0 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 2369,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,1 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 33,1 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 46,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


2022-yilning yanvar-iyul oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 64,0 % ni tashkil etgan.



To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 8,0 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 4 908,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 37,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 124,7 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar- iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 %, fizik hajm indeksi 134,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 801,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 95,2 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,3 % ni, fizik hajm indeksi 101,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1970,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,2 % ni fizik hajm indeksi esa 120,3 % ni tashkil etgan.

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,6 % ni, fizik hajm indeksi 75,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 891,8 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,8 % ni fizik hajm indeksi esa 48,1 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 138,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 457,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni fizik hajm indeksi esa 97,2 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 201,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 162,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni fizik hajm indeksi esa 90,0 % ni tashkil etgan.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 107,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 353,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni fizik hajm indeksi esa 72,3 % ni tashkil etgan.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 %, fizik hajm indeksi 32,4 % ga o‘sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 478,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni fizik hajm indeksi esa 160,4 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2023-yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 958,5 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ini) tashkil etadi.


2023-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13,3 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	220,0	203,3	-16,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	820,0	987,2	167,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 122,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	12,9	8,7	-4,2
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	17,5	10,0	-7,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 8,7 mlrd. so'm yoki 22,2 %ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,0 mlrd. so'm va 28,8 %ga kamaygan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 073,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,0%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 23,7%ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 46,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yil

64,0%

2023-yil

133,1%



Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1019,5 ming so‘m bo‘lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 101,9 %ni tashkil etdi.

Farg‘ona viloyati

2022-yil	107,6%	1310,5	ming so‘m
----------	--------	--------	-----------

2022-yil yanvar-iyul

2023-yil	101,9%	1019,5	ming so‘m
----------	--------	--------	-----------

2023-yil yanvar-iyul



Viloyat bo'yicha oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami oziq-ovqat mahsulotlari 1920,3 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, jami nooziq-ovqat mahsulotlari hajmi esa 2153,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.

*Oziq-ovqat mahsulotlari
Yanvar-iyul*

Hajmi, mlrd.so'm

1902,1 2022-yil

1920,3 2023-vil

O'sish sur'ati %da

97,4% 2022-yil

101,0% 2023-vil

*Nooziq-ovqat mahsulotlari
Yanvar-iyul*

Hajmi, mlrd.so'm

2014,4 2022-yil

2153,0 2023-vil

O'sish sur'ati %da

103,7% 2022-yil

106,9% 2023-vil



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi
2023-yilning yanvar-iyul oylarida**
jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 781,2 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,4 % ni tashkil etdi.

2023-yil 1-avgust holatiga

**Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida **12452** ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ularidan **7853** tasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

